



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiқ o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSİYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI	303
Tashmuxeimmedova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR	326
Egamberdiev Abbasxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbas Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
IQTISODIIY FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL SIYOSATI HOLATI TAHLILI	346
Xudayberginova Nigora Turgunbayevna	
MEHNATGA HAQ TO'LASHTIRISH MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLIISHNING ASOSIY VAZIFALARI	356
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
"CRADLE TO CRADLE" VA "CRADLE TO GRAVE" KONSEPSIYALARINING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI	360
Sodikov Zokir Rustamovich	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	366
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: KEYNESIAN YONDASHUV NUQTAI NAZARIDAN.....	370
Shermatov G'ofurjon G'ulamovich	
QURILISH KORXONALARIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ROSSIYA TAJRIBASI)	377
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL XIZMATLAR SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI.....	385
Aliqulova Laylo Ziyadin qizi	
VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	390
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH	395
Qo'ziyoyev Umarbek Ulug'bekovich	
ОЦЕНКА СТОИМОСТИ И РИСКОВ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (FDI)	400
Бахтиярова Дильноза Мадминджановна	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING AHAMIYATI.....	407
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
O'ZBEKISTONDA INTEGRATSIYALASHGAN YASHIL MOLİYALASHTIRISH ARHITEKTURASI: KONSEPTUAL MODEL VA AMALIY TAKLIFLAR.....	412
Quliyev Ulug'bek Mirzayevich	
BANK TIZIMI FAOLIYATI MISOLIDA MOLİYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KORXONALAR LIKVIDLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	419
Iminova Nurjahan Qodirjon qizi, Karimov Sardorbek Shuxratjon o'g'li	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINING SANOAT RIVOJI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI	423
Baxtiyor Abduganiyev, Nodira Saidbaxromova	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	427
Li Kristina Alekseyevna, Элназарова Шарифа Исроиловна, Эшпулатов Достонбек Боходир огли	
TOVAR-XOMASHYO BIRJASIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	432
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE ROLE OF CORPORATE STRUCTURES IN THE DEVELOPMENT OF GLOBAL FINANCIAL RELATIONS.....	438
Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich	
BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI	442
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING: O'ZBEKISTON SHAROITIDA SAMARADORLIK VA INTEGRATSIYA MODELLARI	446
Kamilov Farxod Shamilevich	
TASHQI SAVDODA EKSPORTNING MAKROIQTISODIY AHAMIYATI	453
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	
РАЗВИТИЕ АСПЕКТОВ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....	459
Юсупов Махамадамин, Закирова Умида Махамадаминовна	
LIZING OLUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITILISHI	462
Sadritdinov Baxodir	



YASHIL IQTISODIYOT VA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	467
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TEKNOLOGIK RESURSLARNI BOSHQARISHDA STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH	474
Kazakov Olim Sabirovich	
OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARINING IQTISODIY AHAMIYATI HAMDA ZARURLIGI.....	479
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
SANOAT KORXONASIDA INNOVATSION JARAYONLAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISHNING METODIK YONDASHUVLARI.....	485
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	



SANOAT KORXONASIDA INNOVATSION JARAYONLAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISHNING METODIK YONDASHUVLARI



Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

TDUI tadqiqotchisi,
ORIENTAL universiteti,
“Biznes va boshqaruv” kafedrası dotsent v.b., PhD
shakhnozakurbanova88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash masalalari, ularning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Innovatsion faoliyat korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonlarida asosiy omil sifatida talqin etiladi. Sanoat sohasida innovatsion faoliyatni baholashda iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va ekologik omillar o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Maqolada innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimi, ularning metodologik asoslari hamda tahliliy yondashuvlari yoritilgan. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasi misolida sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari ham ko'rsatib o'tiladi. Innovatsion faoliyat natijadorligini baholashda integral ko'rsatkichlar, ko'p mezonli tahlil usuli hamda investitsion qaytarim koeffitsientidan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, sanoat korxonasi, samaradorlik, baholash usullari, metodologiya, innovatsion rivojlanish, texnologik yangiliklar, innovatsion strategiya, raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion menejment, ilmiy-texnik salohiyat, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish.

Abstract. This article examines the issues of assessing the effectiveness of innovative activities in industrial enterprises, focusing on both theoretical and practical aspects. Innovative activity is interpreted as a key factor in enhancing enterprise competitiveness, improving production efficiency, and introducing new technologies. In evaluating innovative activities in the industrial sector, economic, technological, social, and environmental factors are considered in close interrelation. The article discusses the main system of indicators used to determine the effectiveness of innovative activities, as well as their methodological foundations and analytical approaches. In addition, drawing on the experience of foreign countries, the paper outlines ways to improve innovation management systems in industrial enterprises. The study also analyzes the possibilities of using integrated indicators, multi-criteria analysis methods, and the investment return coefficient to assess innovation performance.

Key words: innovative activity, industrial enterprise, efficiency, evaluation methods, methodology, innovative development, technological innovations, innovative strategy, competitiveness, economic efficiency, innovation management, scientific and technical potential, production modernization.



Аннотация. В данной статье анализируются вопросы оценки эффективности инновационной деятельности на промышленных предприятиях, а также её теоретические и практические аспекты. Инновационная деятельность рассматривается как ключевой фактор повышения конкурентоспособности предприятия, роста эффективности производства и внедрения новых технологий. При оценке инновационной деятельности в промышленной сфере экономические, технологические, социальные и экологические факторы рассматриваются во взаимосвязи. В статье представлена система основных показателей, используемых для определения эффективности инновационной деятельности, раскрыты их методологические основы и аналитические подходы. Кроме того, на примере зарубежного опыта показаны пути совершенствования инновационной системы управления на промышленных предприятиях. При оценке результативности инновационной деятельности анализируются интегральные показатели, возможности применения многокритериального метода анализа и коэффициента возврата инвестиций.

Ключевые слова: инновационная деятельность, промышленное предприятие, эффективность, методы оценки, методология, инновационное развитие, технологические инновации, инновационная стратегия, конкурентоспособность, экономическая эффективность, инновационный менеджмент, научно-технический потенциал, модернизация производства.

KIRISH

Jahon hamjamiyatida innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash, texnologik hamda ilmiy yutuqlarni qo'lga kiritish jahon bozorida raqobatchilardan ustun bo'lish, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shishda muhim o'rin tutadi. Innovatsiyalar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida barqaror rivojlanish hamda modernizatsiya jarayonlarini ta'minlaydi. Bu esa korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnika va texnologiyalarni takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish, energiya tejamlorligini kuchaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, davlat tomonidan mazkur yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish siyosatini amalga oshirish iqtisodiyot barqarorligi uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Sanoat korxonalarida yangilanish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida innovatsion yondashuvlarga ustuvor ahamiyat berish amaliyotini muntazam yo'lga qo'yish zarur. Shu bois, davlat tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish siyosatini samarali amalga oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda O'zbekiston davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yaxshilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqda" [1]. Shu nuqtai nazardan, qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion g'oyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviylashtirish, loyihalarni boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, yangi loyihalar portfelini shakllantirish hamda resurslarni tejashga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish zarur. Shuningdek, hududlarda qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini ilmiy asoslashga qaratilgan tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsiyalarni tahlil qilish ularning iqtisodiyotdagi mazmunidan kelib chiqqan holda o'ziga xos usullar va yondashuvlarni talab etadi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish ilmiy-texnologik taraqqiyot mohiyatini chuqur anglash, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu jarayon natijasida yangi texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqiladi.

Birinchidan, innovatsion jarayonlarni tahlil qilish ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa resurslarni samarali taqsimlash hamda investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, innovatsion faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan baholash va ularga nisbatan mos choralarni belgilash imkoniyati vujudga keladi. Shuningdek, innovatsion jarayonlarni chuqur tahlil qilish korxona va tarmoqlarning texnologik raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Texnologik yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning eng maqbul usullarini ishlab chiqish uchun zarur ilmiy-amaliy asoslar shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

MDH olimlaridan K.V. Mixaylov tadqiqotlariga ko'ra, innovatsion faoliyat iste'molchi va yetkazib beruvchi korxona o'rtasidagi hamkorlik sharoitida korxonaning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.



Olimning ta'kidlashicha, tahlilchi avvalo "korxonaning innovatsiyalarga moyilligi, resurslarning mavjudligi hamda innovatsion kompetensiyasi"ni baholaydi [2]. Mazkur yondashuvda korxona innovatsiyalarga moyil tizim sifatida talqin qilinadi.

O.V. Navoyevaning fikricha, korxonaning innovatsion faoliyati quyidagi ko'rsatkichlar asosida izohlanadi: "innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi; innovatsiyalar tuzilmasi; innovatsiyalarning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligi darajasi; innovatsiyalarning raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlashga qo'shgan hissasi" [3]. Ushbu yondashuv innovatsion faoliyatni baholash jarayonida nafaqat iqtisodiy natijalarni, balki innovatsiyalarning ijtimoiy ahamiyatini ham e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy iqtisodchilardan B. Baxtiyrovning fikricha, korxona innovatsion faoliyatining samaradorligini kompleks baholashga qaratilgan tadqiqotlarda uning innovatsion rivojlanishini tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: korxonaning fan sig'imkorligi, ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotning yangilanish koeffitsienti, ITTKI (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari) xarajatlari samaradorligi koeffitsienti, mahsulot ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish koeffitsienti hamda korxonada ilmiy ishlanmalarning intensivligi koeffitsienti [4]. Mazkur ko'rsatkichlar innovatsion faoliyatning ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyat bilan bog'liqligini ochib beradi.

Yana bir mahalliy tadqiqotchi Z. Doniyorovning ta'kidlashicha, "sanoat korxonasining innovatsion faoliyatini baholash metodologiyasida korxonaning innovatsion faoliyati uning innovatsion salohiyatining dastlabki imkoniyatlari va tuzilmasiga bog'liq" [5]. Ushbu fikr innovatsion natijadorlikni baholashda korxonaning ichki resurs bazasi, kadrlar salohiyati hamda tashkiliy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish zarurligini anglatadi.

Innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda tadqiqot va ishlanmalar (R&D) alohida o'rin tutadi. Bu korxonaga qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va bozor talablariga tez moslashish imkonini beradi. Shuningdek, korxonaning innovatsion strategiyasi ham uning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxona uzoq muddatli strategik rejalashtirishga ega bo'lishi zarur. Mazkur jarayonda menejment innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi, xodimlarning bilim va malakasini oshirish uchun tegishli sharoit yaratishi lozim.

Umuman olganda, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bunda texnologik rivojlanish, ilmiy tadqiqotlar, menejment strategiyasi, moliyaviy barqarorlik hamda bozor talabi bilan uyg'un harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, korxonalar innovatsiyalarni o'z faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilib, ularni muntazam ravishda rivojlantirib borishlari zarur. Shuningdek, inson resurslaridan samarali foydalanish innovatsion faoliyat natijadorligini baholashda muhim o'rin tutadi. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish uchun xodimlarning bilim va malakasini doimiy ravishda oshirib borish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash jarayonini tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy izlanishning nazariy va amaliy asoslari uyg'unlashtirilgan. Tadqiqot davomida innovatsion faoliyatning iqtisodiy mazmuni, uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri hamda resurslardan foydalanish darajasi iqtisodiy tahlil, solishtirma tahlil va statistik usullar yordamida o'rganildi.

Shu bilan birga, innovatsion faoliyat natijadorligini aniqlashda kompleks yondashuv qo'llanilib, moliyaviy ko'rsatkichlar, texnologik yangilanish darajasi, mehnat unumdorligi hamda mahsulot sifati kabi mezonlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Tadqiqotda iqtisodiy-matematik modellashirish va grafik tahlil vositalaridan foydalanish orqali sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlarning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlashtirildi.

Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv hamda funksional tahlil tamoyillari tanlandi va ular innovatsion faoliyatni baholashda aniq hamda ishonchli natijalarga erishishga xizmat qildi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda ularning baholash modellari tahlil qilinib, O'zbekiston sanoat korxonalari sharoitiga mos uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ishlab chiqarish sohasidagi korxonalar hamda boshqaruv tuzilmalarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ushbu tashkilotlarning bozorda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayon mahsulot sifati, funksional imkoniyatlar va narx o'rtasida maqbul muvozanatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, korxonalarning innovatsion faoliyati assortimentni diversifikatsiya qilish, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, zamonaviy texnologik yechimlarni amaliyotga joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan kompleks tadqiqotlar




orqali namoyon bo'ladi. Ushbu faoliyat yo'nalishlari korxonaning umumiy innovatsion strategiyasining asosiy elementlari sifatida talqin etiladi.

Korxonaning innovatsion faoliyatini shakllantiruvchi muhim shartlardan biri shundan iboratki, mavjud mahsulotlar va texnologiyalar tez eskirish xususiyatiga ega. Shu sababli, eskirgan va qoloq bo'lib qolgan hamda taraqqiyot yo'lida to'siqqa aylangan muammolarni muntazam ravishda bartaraf etish, shuningdek, yo'l qo'yilgan xatolar, muvaffaqiyatsizliklar va kamchiliklarni tahlil qilib borish zarur. Buning uchun korxonalarda ma'lum davriylikda mahsulotlar, texnologiyalar va ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish, bozor konyunkturasi hamda taqsimlash kanallarini tahlil qilish lozim.

Boshqacha aytganda, korxona faoliyatining barcha jihatlarini muntazam ravishda "rentgen" tahlili orqali tekshirib borish talab etiladi. Bu jarayon faqatgina korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati, mahsulotlari va bozorlari holatini diagnostika qilish bilangina cheklanmaydi. Aksincha, mazkur tahlil natijasida korxona egalari o'z mahsulot va xizmatlari raqobatchilar tomonidan siqib chiqarilishini kutmasdan, ularni ma'naviy eskirish bosqichiga yetmasidan oldin yangilash haqida o'ylashlari zarur bo'ladi. Bu esa korxonalarni innovatsion faoliyatga yo'naltiruvchi muhim turtki sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri — korxona raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvni joriy etishdir. Innovatsion jarayonlarda xodimlarning kreativligi va ilmiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, tashkilot ichida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi korporativ madaniyatni shakllantirish zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot yaqin kelajakda eskirib qolishi mumkinligini anglash rahbariyatni innovatsion g'oyalarga e'tibor qaratishga undovchi eng kuchli omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda korxonaning innovatsion faoliyatini baholashga turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, innovatsion faoliyatni tahlil qilish va baholashning amaliyotda keng qo'llaniladigan yondashuvlari sifatida rasmiy (formal), xarajatli va natijaviy yondashuvlar ajratib ko'rsatiladi (1-rasm).



1-rasm. Korxonalarda innovatsion faoliyatni baholashga yondashuvlar¹

Har bir yondashuv korxonaning innovatsion faoliyatini muayyan nuqtayi nazardan baholashga qaratilgan. Xususan, rasmiy yondashuv innovatsion faoliyat doirasida amalga oshirilgan yangi loyihalar soni va ularning dinamikasini tahlil qiladi, xarajatli yondashuv esa ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) uchun ajratilgan mablag'lar hajmini o'rganishga yo'naltiriladi. Natijaviy yondashuv esa innovatsion g'oyalar asosida olib borilgan faoliyatning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va baholashga xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, innovatsion loyihalar innovatsion faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy belgilari sirasiga kiradi. Shu bois, innovatsion faoliyatning nazariy murakkabligi uni faqat bir yo'nalishda baholash yetarlicha ishonchli natijalarni bermasligini ko'rsatadi. Amaliyotda asosli xulosa chiqarish uchun har tomonlama tahlil va kompleks yondashuvni qo'llash talab etiladi. Mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarning innovatsion faoliyatni baholash usullari bo'yicha qarashlari umumlashtirilib tahlil qilindi va olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirildi (1-jadval).

1 Muallif ishlanmasi

1-jadval. Innovatsion faoliyatni baholash usullarining qiyosiy tahlili²

Rasmiy yondashuv	Xarajatli yondashuv	Natijaviy yondashuv
- Tugallangan innovatsiyalarning mavjudligi: mahsulot, jarayon, marketing yoki tashkiliy. - innovatsion faoliyat bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish fakti. - yopiq innovatsion loyihalarning mavjudligi. - Tayyorlash va amalga oshirish bosqichlarida innovatsion loyihalarning mavjudligi. - Ishlab chiqilgan patentlar va innovatsiyalarning mavjudligi.	- ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning ichki xarajatlari. - texnologik innovatsiyalar uchun xarajatlar ulushi. - tadqiqot va ishlanmalar bilan mashg'ul xodimlar ulushi. - innovatsiya jarayonida foydalaniladigan asosiy fondlar qiymati. - o'zi tomonidan yaratilgan yoki sotib olingan intellektual mulk mavjudligi. - ilg'or tajribalardan foydalanish. - xodimlarni o'qitish. - xodimlarning motivatsiyasi darajasi. - axborot va ma'lumotlar bilan ta'minlash. - korporativ madaniyat sifati. - maqbul tashkiliy tuzilma. - innovatsiyani o'zlashtirish koeffitsienti. - yangilikni qabul qilish darajasi. - innovatsion o'sish koeffitsienti. - ichki va tashqi muhit omillarini hisobga olish	- Innovatsion mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmidagi ulushi. - Ish o'rinlarini yaratish. - Savdo belgilari va sanoat namunalari soni. - Xarajatlarni tejash effekti. - Korxonaning bozor qiymatiga hissa ta'siri. - Korxona daromadlarining o'sishi. - Korxona xarajatlarini kamaytirish. - tashkiliy tuzilma va boshqaruv uslubini takomillashtirish. - Innovatsion strategiyaning erishilgan sifati. - Intellektuallik: fan va texnika yutuqlari va intellektual natijalar. - Innovatsionlik: innovatsiyalarni ijobiy qabul qilish. - Innovatsionlik: innovatsiyalarni sotiladigan format va mahsulotlarga aylantirish.

Tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda, mazkur yondashuvlarni sanoat korxonalarida qo'llash kontekstida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, korxonada qo'llanilayotgan hamda rasmiy ravishda tahlil qilingan innovatsion loyihalar sonini baholash muhim masalalardan biridir. Biroq innovatsion loyihalarni bevosita aniqlash va ularni aniq mezonlar asosida saralash masalasi ko'pincha yetarli darajada e'tibordan chetda qolmoqda.

Xarajatli yondashuvni sanoat korxonasiga nisbatan qo'llash nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu yondashuv mexanizmida xarajatlarni baholash metodologiyasi bilan bog'liq ayrim qarama-qarshiliklar mavjudligini ta'kidlash lozim. Jumladan, ushbu yondashuv korxona qaysi turdagi xarajatlarni hisobga olishi zarurligini aniq belgilab bermaydi. Xuddi shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi xodimlar koeffitsientlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun mo'ljallangan mulk (aktivlar) koeffitsientlarini hisoblashda ham yagona va aniq metodik yondashuv mavjud emas.

Natijaviy yondashuvning asosiy jihatlaridan biri korxonada amalga oshirilgan texnik, texnologik, ijtimoiy hamda boshqaruv innovatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashdan iborat. Biroq ushbu yondashuv doirasida innovatsion mahsulotlarni bozorda sotishdan olinadigan bevosita iqtisodiy samara har doim ham yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada, asosan korxonaning ishlab chiqarish jarayonlari holati, boshqaruv tizimi hamda ijtimoiy muhitdagi innovatsion faollik darajasini tahlil qilish orqali korxonani bir tomonlama baholash ehtimoli yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqolada o'rganilgan natijalar asosida aniqlanishicha, ko'plab sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlar natijalari asosan iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholanadi, bu esa innovatsion faoliyatning to'liq manzarasini aks ettira olmaydi. Shu sababli, baholash tizimida iqtisodiy natijalar bilan bir qatorda ilmiy-texnik, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni ham qamrab oluvchi kompleks yondashuv zarurligi asoslab berildi. Innovatsion faoliyat samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish hajmining o'sishi yoki foyda miqdori bilan, balki intellektual salohiyatni oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish tezligi hamda korxonada innovatsion madaniyatni shakllantirish darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha yagona metodikani ishlab chiqish va uni milliy standart sifatida tasdiqlash zarur. Bu baholash natijalarining solishtiriluvchanligini ta'minlab,



turli korxonalarning innovatsion rivojlanish darajasini tahlil qilish imkonini yaratadi. Ikkinchidan, innovatsion samaradorlikni aniqlashda faqat moliyaviy natijalarni emas, balki inson kapitali, ilmiy salohiyat, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanish darajasi kabi nomoddiy omillarni ham hisobga olish lozim. Uchinchidan, korxonalarda innovatsion faoliyat monitoringini tashkil etishning raqamlashtirilgan tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizim innovatsion loyihalarning amalga oshirilish jarayonini real vaqt rejimida kuzatish, shuningdek, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini operativ baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish hamda ularni kompleks va tizimli asosda amalga oshirish O'zbekiston sanoatining innovatsion rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Taklif etilgan yondashuvlar korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion salohiyatni to'liq ishga solish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020.
2. Михайлов К.В. Организация управления риском и инновациями в стратегии предприятия // Сборник трудов «Актуальные проблемы развития экономики современной России». – Москва: МИПК, 2004.
3. Навоева О.В. Механизм повышения инновационной активности организации. – Магадан: Кордис, 2010. – 135 с.
4. Baxtiyorov B. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 15-b.
5. Doniyorova Z. Sanoat korxonalari rivojlanishining innovatsion strategiyalarini takomillashtirish: i.f.f.d. (PhD) dissertatsiya. – Toshkent, 2022. – 15-b.
6. Kurbanova Sh.Y. Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati samaradorligini baholashning xususiyatlari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – № 4(10). – 139–145-b.
7. Kurbanova Sh.Y. Increasing the innovation potential of construction materials industry enterprises // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024-yil noyabr. – № 11. – 350–355-b.
8. Kurbanova Sh.Y. Ways to increase innovative activity of construction materials enterprises // American Journal of Management Practice. – 2024. – Vol. 1, No. 7 (Nov.). – URL: <https://semantjournals.org/index.php/AJMP>
9. Kurbanova Sh.Y. Sun'iy intellektni iqtisodiyotda qo'llash asoslari // Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellektni qo'llashning nazariy asoslari: respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: Toshkent Moliya instituti, 2023-yil 16-noyabr. – 19–24-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>